



## NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GRAFOMOTOR MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Ibroximjonova Jannatxon Ibroximjon qizi*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti*

*Maktabgacha ta'lif nazariyasi va metodikasi*

*yo'nalishi MPRE-6U guruh 2-kurs magistri*

**Annotatsiya:** Ushbu mqaolada nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda grafomotor malakalarini shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Bolalar uchun grafomotor malakasini rivojlantirishning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** grafomotor, malaka, mayda motorika, nutq buzilishi, diqqat, vizual idrok, grafik ko'nikma, fazoviy idrok.

Bugungi kunda bolalarni maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlab har tomonlama rivojlantirish dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Mayda motorikani shakllantirish bolaning intellektual va psixofizik rivojlanishidagi muvaffaqiyatida katta rol o'ynaydi. Mayda motorikani rivojlantirishimiz orqali bolaning grafomotor malakalarini shakllantirishimiz mumkin bo'ladi. Grafomotor malakalar o'z navbatida bolalarning kelgusida maktab bilimlarini egallashiga ko'makchi bo'ladi. Muammoning dolzarbli shundaki, nutqi to'liq rivojlanmagan (NTR) bolalarning aksariyat qismida maktabgacha davrda motor hamda nutqiy rivojlanish jarayonining to'la yetilmaganligi sababli maktabda yozish jarayonida yozma nutq bilan bog'liq kamchiliklar yuzaga keladi. Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar soni ancha oshgan. Bunday bolalarning mayda motorikasi yaxshi rivojlanmaganligi, harakatlar koordinatsiyasining normada emasligi va fazoviy mo'ljal olishda o'z o'zini nazorat qila olmasligi sababli ularda grafomotor malakalarning shakllanishi birmuncha qiyinchiliklar bilan kechadi, kelgusida bu holat yozuv jarayonini o'zlashtirishdagi muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning grafomotor malakalarini shakllantirish muammosi bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda alohida o'rinda tutadi. Bola hayotida 6-7 yosh grafomotor malakalarning shakllanishidagi senzitiv davr hisoblanadi. Ushbu yosha turli faoliyat turlarini tashkil etish, va mashg'ulotlarni tizimli ravishda olib borish orqali nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning grafomotor malakalarini shakllantirishga qaratilgan jarayon samarasini sezilarli darajada oshirish mumkin.

M. M. Bezrukix, A. D. Botvinnikova, V. A. Ilyuxina va boshqa olimlarning ishlari bolalarning grafomotor malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Nutq buzilislari bo'lgan bolalarning grafomotor malakalarini shakllantirish ustida O. B. Inshakova, O. I. Krupenchuk, S. N. Lisyuk va boshqa olimlar bevosita ish olib borishgan.

Grafomotor malaka - bu oddiy naqshlarni chizish, nuqtalarni, chiziqlarni ulash, rasmlarni bo'yash imkonini beradigan yetakchi qo'lning o'ziga xos holati va harakati. Grafomotor malakalarning vazifalariga quyidagilar kiradi:



- berilgan materialni vizual idrok etish;
- diqqat;
- qalam yoki ruchkani to'g'ri ushlab turish;
- yozishda qalamning tegishli bosimi;
- harakatlar ritmi;
- Chiziqlarni kuzatishda aniqlik.

Bolalarda grafomotor malakalarini erta yoshdan o'z vaqtida rivojlantirish muhimdir. Agar grafomotor malakalarini shakllantirish erta yoshdan boshlangan bo'lsa, unda ko'p hollarda bu bolalarda maktab o'quv dasturini o'zlashtirishda hech qanday muammolar bo'lmaydi. Har bir yoshda grafomotor qobiliyatlarning o'ziga xos rivojlanish darajasi mavjud. Shu munosabat bilan, bolaning ma'lum bir rivojlanish darajasiga mos kelishi yoki orqada qolayotganini aniqlash mumkin.

M. M. Bezrukixning fikricha: "Grafik ko'nikmalar yozadigan qo'lning ma'lum bir odatiy holati hamda harakatlarini nazarda tutadi va u harfli belgilarni tasvirlash hamda o'zaro bog'lash imkonini beradi. Agar grafomotor malaka to'liq shakllangan bo'lsa, bola harflarni aniq, chirolyi va tez yozadi, agar grafomotor malakalar shakllanmagan bo'lsa yozuvda ma'lum bir qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin: tushunarsiz va xunuk xusnixat, yozish jarayonining sekinlashganligi shular jumlasidandir". Grafomotor malakalarning shakllanmaganligi kundalik faoliyatda o'zini namoyon qiladi va ota-onalar yoki o'qituvchilar buni payqashlari juda oson. Grafomotor malakalari shakllanmagan bola:

- hunarmandchilik faoliyatiga intilmaydi;
- chizishdan bosh tortadi;
- o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilishda qiynaladi (kiyinish, poyabzal bog'ichlarini bog'lash);
- Tengdoshlari bilan solishtirganda rasmlari o'xshamaydi, qalamni noto'g'ri ushlaydi.

Ko'pgina bolalar harakatlarning aniqligi va sinxronizatsiyasini talab qiladigan harakatlarda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Biror narsani kesish, haykaltaryoshlik, konturni chizish, plastilindan foydalanish - bularning barchasi kattalar uchun muammo tug'dirmaydi, lekin maktabgacha yoshdagি bolalarda bu oddiy ko'rindigan harakatlar bilan bog'liq qiyinchiliklar uchraydi. Agar bolada grafomotor malakalari kam rivojlangan bo'lsa, u maktabda ta'lim olish paytida yozishda muammolarga duch keladi va uning akademik ko'rsatkichlari pasayadi. Shuning uchun bolalarda grafomotor malakalarni rivojlantirishga erta yoshdan boshlab harakat qilish kerak. Grafomotor malakalar asosini shakllantirish jarayoni umumiy hamda mayda motorika, fonematik idrok va eshitish tahlili, ko'ruv-fazoviy tasavvurlari, ko'ruv motor koordinatsiyasi, nutqiy rivojlanish darajasi kabi komponentlarning rivojlanishiga bevosita bog'liqidir. Shuning uchun bolani maktabga tayyorlash jarayoni mayda va umumiy motorika, diqqat va ko'rish tasavvurlarini shakllantirish ishlarini o'z ichiga olishi lozim.

M. M. Koltsova va boshqa bir qator tadqiqotchilarning fikricha, qo'l kaftini xuddi artikulyatsion apparat singari to'laqonli nutq organi deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud. Ushbu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, bosh miyadagi qo'l proyeksiyasini yana bir nutq sohasi deb hisoblash mumkin. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, qo'l barmoqlarining rivojlanish darajasi yoshga doir normaga muvofiq kelsa, nutqiy rivojlanish darajasi ham normada kechadi va aksincha, barmoqlar harakatlarining rivojlanishi ortda qolsa, nutqiy rivojlanish ham ortda qoladi, biroq bunda umumiy motorika normal ko'rsatkichlarni ifodalashi, hatto juda yaxshi rivojlangan bo'lishi ham mumkin.



M. M. Bezrukix o'z tadqiqotlari mobaynida shuni qayd etdiki, 1-1,5 yoshga kelib bola qalamni kafti bilan siqib ushlaydi, bu esa harakatlar doirasining chekhanishiga sabab bo'ladi. U rasm chizish jarayonidan bahra olgan holda ma'lum bir narsani chizishga harakat qiladi va bu ishni katta qiziqish bilan bajaradi. 2-3 yoshga kelib bola qalamni teparoqdan ushlaydi va uni kafti bilan siqib tutib turadi. Ayni holat bolalarga murakkab harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi, biroq ushbu harakatlar spontan bo'lib mo'ljal jihatidan chekhanmagan. 3 yoshdan keyin esa rasm chizishdagi chiziqlar mazmunsiz bo'lib o'zining takrorlanish xususiyatini yo'qotadi va ma'lum bir shaklni kasb etib boradi. Vertikal harakatlarni amalga oshirish paytidagi koordinatsiya yaxshilanadi. Bu yoshda bola chizadigan oval shakllar biroz noaniq bo'lsada, ushbu shakllar uning rasmida ko'p takrorlanadi. 13 3-4,5 yoshga kelib bola qalamni to'g'ri ushlay boshlaydi va u bilan turli manipulyatsiyalarni erkin amalga oshiradi. Harakatlar koordinatsiyasi va ko'ruv fazoviy idroki takomillashadi, natijada bolalar rasmni yaxshi ko'chirib chiza oladilar. Ular shakllar proporsiyasini to'g'ri tasvirlay oladi va parallel chiziqlarni nisbatan aniq chizadi. Rasmlar o'zining syujetiga ko'ra turlicha bo'ladi. Bolalar chizishdan tashqari o'z rasmlarida nimalarnidir yozishga ham urina boshlashadi.

5 yoshga kelib gorizontal va vertikal shtrixlarni yaxshi chiza boshlashadi. Bola shtrixlar uzunligini yaxshi nazorat qila boshlaydi va ular yanada aniqroq hamda tekisroq ifodalanadi. Bu qalam va ruchkani ushslash usulining o'zgarishi oqibatida ifodalanadi. Bolalar harflarni tasvirlashga tobora ko'proq harakat qila boshlashadi. 6 yoshga kelib bolalar sodda geometrik shakllarning hajmi va proporsiyalarini to'g'ri ifodalagan holda osonlik bilan chiza olishadi. Shtrixlar nisbatan aniqroq va tekisroq xususiyat kasb etadi, ovallar esa to'liq tugallanadi. 6 yoshga kelib bola har qanday grafik harakatlarni bajara oladi, shtrixlar va chiziqlarni yaxshi chizadi, doimiy tartibda tashkil etiladigan rasm chizish jarayonlari harakatlarning takomillashishi, ko'ruv xotirasi va fazoviy idrokning rivojlanishiga yordam beradi hamda yozuvni o'rganish jarayoni uchun ijobiy muhit yaratadi. Agar bola erta va maktabgacha yoshda ijobiy muhitda rivojlansa, u kelgusida maktabdagagi ta'lif mobaynida yozuv malakalarini o'zlashtirish uchun as qotuvchi juda ko'p zaruriy ko'nikmalarini egallashi mumkin.

M. M. Bezrukix grafik malakalarning shakllanishidagi 3 asosiy bosqichni farqlaydi: 1. Analitik bosqich - harakatlarning alohida elementlarini o'zlashtirish, alohida malakalarni ajratish, ish tarkibini anglash.

2. Sintetik bosqich - alohida elementlarni bir butun harakatga uyg'unlashtirish.

3. Avtomatizatsiya bosqichi - grafik harakatlarni yozuv malakasini o'zlashtirishning yuqori darajasi sifatida o'zlashtirish.

O. A. Matveyeva o'zining "Barmoqchalar uchun yo'lakchalar. Maktabgacha yoshdagi NTR bolalarning mayda motorikasini rivojlantiruvchi o'yin 21 texnologiyalari" maqolasida barmoq mashqlarini nafaqat mayda motorikani, balki nutqiy faoliyatni hamda aqliy qobiliyatlar va psixik jarayonlarni rivojlantiruvchi vosita sifatida ko'rib chiqadi. Maqola muallifi barmoqlar uchun mo'ljallangan o'yin texnologiyasini ishlab chiqqan. Bunda barmoqlar ma'lum bir yuzalar – "barmoqchalar uchun yo'lakchalar" bo'ylab harakatlanadi. Ushbu yo'lakchalar barmoqlarning "yurishi" uchun mo'ljallangan jadval ko'rinishidagi orientirlarni o'z ichiga oladi. Ayni o'yin davomida oddiydan murakkabga tamoyili asosida ish ko'riliishi lozim. O'yin qoidasi quyidagilardan iborat: ikkala qo'l barmoqlariga bir xil yuklama qo'yiladi; har bir mashqdan so'ng barmoqlar bo'shashtiriladi (masalan, kaftlar silkitiladi); barmoq mashqlari ta'lif jarayonining hamma turlarida bevosita qo'llanilishi kerak. O. A. Matveyeva ayni o'yin texnologiyasining quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatadi: barmoqlarni belgilangan kontur bo'ylab harakatlantirish malakasini shakllantirish; barmoq harakatlarini kombinatsiyalash; ularning faolligi va harakatchanligini oshirish; mayda motorikani rivojlantirish. Shu bilan birgalikda ayni maqolaning muallifi barmoq mashqlarini bajarishda zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanishning muhim ahamiyatga ega ekanligini



alohida ta'kidlab o'tadi: - har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish; - qo'l kafti va barmoqlariga bolaning salomatligiga salbiy ta'sir qilmaydigan, boshqarish mumkin bo'lgan jismoniy yuklama bilan ta'sir etish; - bolaning imkoniyatlarini rivojlanтирishga yordam beruvchi harakatlarni amalga oshirish; - bolaning nutqiy va aqliy jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi korreksion mashg'ulotlarni qamrab olish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yozuv - nafaqat qo'l kafti va barmoqlarining mushaklari, balki butun tana mushaklarining koordinatsion harakatini talab etuvchi murakkab koordinatsion malaka hisoblanadi. Shu boisdan ham bolalarni nutqiy va aqliy rivojlanishiga erta bolalikdanoq e'tiborli bo'lishimiz kerak. Bolalarni mayda va sensor motorikasini rivojlanтирish uchun plastin bilan ishslash, qum, toshlarni o'yash, legolar bilan o'yash, qalam bilan ishslash, qog'ozdan origami usulida narsalar yasashga o'rgatib borishimiz kerak. Bolalarni qo'l mayda motorikasi qancha rivojlansa, shunchalik aqliy rivojlanishi ham yaxshi bo'ladi.

Maktabgacha yoshdag'i nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning grafomotor malakalari asosini shakllantirishga qaratilgan ishlar logopedik mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Logopedik mashg'ulotlar davomida orttirilgan malakalar korreksion faoliyatning barcha ishtirokchilari tomonidan mustahkamlanib borilsagina yaxshi samara beradi. Bunda guruh tarbiyachilari, pedagog-psixologlar va ota-onalar alohida rol o'yashadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi O'RQ-637- sonli qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-sod.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 -yil 28-yanvardagi "2022 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sod Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-sod
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-587- sonli qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2019-y., 03/19/587/4122-sod
4. Alimova K.X. Yozuv malakalarini rivojlanтирishda grafomotor ko'nikmalarini rivojlanтирish. Jizzax, "Yangi O'zbekistonda oliv ta'lim muassasalarini tizimli tashkiliy boshqaruvini rivojlanтирish takomillashtirish muammolari", 2023
5. Ayupova M. Yu., Aripova Sh.D. "To'g'ri talaffuz qilamiz va yozamiz". Metodik qo'llanma - T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati- 2015.
6. Безруких М. М. Обучение первоначальному письму: Система Д. Б. Эльконина / М. М. Безруких. - М. : Просвещение, 2002.
7. Беккер К.П., Совак М. Логопедия. М., 1981.,с.
8. Иншакова О. Б. Развитие и коррекция графомоторных навыков у детей 5-7 лет: Пособие для логопеда: В 2-х ч. Ч. 1: Формирование зрительно предметного гноэза и зрительно-моторной координации. – М. : Владос, 2003. – 183 с.
9. Иншакова О. Б. Формирование элементарного графического навыка у детей 5-7 лет (практ. пособие в 2-х частях). Изд-во «Владос», - М, 2003
10. Кольцова, М. М. Двигательная активность и развитие функций мозга ребенка [Текст] /М. М. Кольцова.– М. : Педагогика, 2000.
11. Матвеева О. А. "Пальчиковые дорожки. Игровая технология для развития мелкой моторики дошкольников с ОНР" Феникс, 2017